



VERBAL VA NOVERBAL ALOQA VOSITALARI

Sultonmurodova Nilufar Bahtiyorovna

UzMU xorijiy filologiya fakulteti "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik" kafedrası
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aloqa-aralashuv jarayonining yuzaga kelishida xizmat qiladigan verbal va noverbal aloqa vositalari haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Ularning qachon va qayerda paydo bo'lganligi, bugungi kunda qanday ko'rinishda ekanligi, ularning fanlar bilan bog'liqligi o'rganiladi hamda misollar keltirilib yanada kengroq yoritib beriladi.

Key words: Aloqa-aralashuv jarayoni, verbal aloqa-aralashuv vositalari, noverbal aloqa-aralashuv vositalari, til sathi.

Aloqa-aralashuv jarayoni nafaqat butun insoniyatga, balki yashayotgan barcha jonzorlar orasida bo'ladigan jarayondir. Ha, hayvonlar ham bir-biri bilan muloqotga kirisha oladilar: har xil tovush va ovozlarni chiqarib, o'z fikrini boshqa bir yondoshiga yetkaza oladilar. Insonlar ham shunday, bir-biri bilan fikr almashadilar, aloqa-aralashuv jarayonini yuzaga keltiradilar. Xo'sh, shunday ekan, insoniyatning hayvonot dunyosi bilan farqi nimada? Bu savolning javobi bitta – tafakkurda!

Yer yuzidagi barcha maxluqotlar ichida tafakkur qila olish qobiliyati faqatgina odamzodga tegishlidir. Shu sababli, insonlar sivilizatsiyaning ilk kurtak ochgan paytlarida bir-biri bilan tushunarli tarzda aloqa-aralashuv jarayonini yuzaga keltirish uchun ham tafakkurini ishga soldi va o'zi hamda yaqinlari uchun qulay va aniq bo'lgan tilni yaratdi.

Til – faqatgina insoniyatga tegishli bo'lgan aloqa-aralashuv vositasi bo'lib, necha ming yillar oldin yuzaga chiqa boshlagan. Olimlarning ta'kidlashicha, insoniyat tildan bundan 5 – 6 ming tillar ilgari foydalanishni boshlagan, bu, albatta, taxmin xolos; uning aynan kim tomonidan, qachon va aynan qayerda yaratilingani haqida aniq ma'lumotlar yo'q.

Ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzida 2500 tadan ko'proq tillar mavjud. Ularning ayrimlari bir-biri bilan judayam o'xshash. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq tillari, ayniqsa, xorazm shevasi bilan turk tili bir-biriga judayam o'xshash bo'lsa, ingliz, nemis, fransuz va rus tilidagi ko'pchilik so'zlar bir-biriga judayam yaqindir. Bunga sabab ularning bir tillar oilasiga kirishidadir, agarda ular bir oilaga kirmaganida umuman o'xshash bo'lmagan bo'lardi.

Dunyoda shuncha tillar mavjudligi aniqlanganiga qaramasdan, ularning ko'pchiligi o'lik tillardir. O'lik tillar deb aytilishiga sabab, yillar o'tgani sayin ulardan foydalanuvchilar sonining kamayyib ketganligi va natijada o'sha tilning iste'moldan chiqib ketishidir. Bunga misol qilib, lotin tili, shumer tilini keltirsak bo'ladi. Hozirda ulardan foydalanuvchi insonlar qolmagan va uning o'rnini dunyo bo'ylab ildiz otayotgan tillar egallagan. Ayniqsa, ingliz tilidan dunyo aholisining uchdan bir qismi foydalanmoqda.

Har bir tilning o'ziga xos qolipi, uning asosi mavjud. Shuning uchun ham, odamlar uni tezda va osongina o'zlashtira oladilar, tildagi har bir belgi tushunarlidir. Ba'zi tillarni o'rganishda iyerogliflardan, ba'zilarida lotin va krill harflaridan foydalaniladi. Demak, har



bir tilning shakli, ko'rinishi bor ekan. Ammo, biz nutqimiz davomida har xil mimika, yuz ifodalari, tana harakatlaridan foydalanishimizga to'g'ri keladi. Xo'sh, biz ularni nima deb nomlaymiz? Ular bizga nimaga kerak?

Muloqot jarayonida lisoniy birliklar o'rnida qo'llaniluvchi va fikr ifodalashda yordamchi vazifani bajaruvchi birliklar noverbal aloqa-aralashuv vositalari deb aytiladi. Ularga misol qilib imo-ishoralarni, mimika, yuz ifodalarini, tana harakatlarini keltirishimiz mumkin. "Gapirma", "jim bo'l" degan fikrlarni so'zlovchi tinglovchiga bosh barmog'ini labiga bosish orqali yetkaza oladi. Bu bitta imo-ishora orqali tinglovchiga har ikkala fikr birdek yetib boradi. Tadqiqotlarga ko'ra, "ha" ya'ni tasdiq belgisini 50 tadan ortiq belgi-harakat bilan, "yo'q" ya'ni inkor belgisini 500 tadan ortiq imo-ishoralar bilan ko'rsatishimiz mumkin ekan. Boshimizni vertikaliga qimirlatsak "ha" degan, gorizantaliga qimirlatsak "yo'q" degan ma'no tushuniladi. Qolaversa, inkor ma'noni anglatish uchun qo'lni tebratish, yuzini teskari o'girish, gapirmaslik, javob bermaslik, qo'l kaftini ko'rsatish, qo'lni yuzga torish kabi bir qancha xatti-harakatlar mavjud.

Noverbal aloqa-aralashuv vositalarining vazifasi shundan iborat-ki, ular nafaqat fikrning yanada jozibaliroq va tushunarliroq ifodalanishiga yordam beradi, balki tinglovchiga emotsional ta'sir qiladi. Shuning uchun ham nolisoniy birliklar aloqa-aralashuv jarayonini ro'yobga chiqarishda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan faktorlardan biridir. Ba'zi vaziyatlarda bu vositalarsiz berilgan fikr xuddiki yalang'och, emotsional ta'sirsiz, mantiqiy jihatdan noto'g'ri va tushunarsiz bo'lib qoladi.

So'nggi yillarda nolisoniy vositalar va ularni qo'llash tilshunos olimlarning nuqtayi-nazarida bo'lib kelmoqda. Saidxonov.M. ning "Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar" nomli kitobida keltirilishicha, etnograflar noverbal aloqa-aralashuv vositalari xalqning, elatning, millatning ana'nalarini ko'rsatib beruvchi milliy imo-ishoralari, adab shakllari deb ta'kidlashsa; tarixchilar uni kishilar qo'llaydigan odatiy ishora yoki udumlarni xalq tarixi bilan bog'liq holda tadqiq etadilar. Shuningdek imo-ishoralar fiziologlar tomonidan ham o'rganilmoqda. Chunki so'zlovchi fikr almashayotgan paytida qo'llari, yuzi, tana harakati ya'ni butun organini harakatga keltiradi. Psixologiyada esa noverbal vositalar muloqot jarayoni va ular so'zlovchilarning bir-biriga psixologik munosabatidan kelib chiqqan holda yuzaga keladi deb qaraladi.

Shunday ekan, noverbal aloqa-aralashuv vositalari millat va elatlarning urf-oatidan kelib chiqqan holda bir-biridan farq qiladi. Ishoralar bir xil bo'lishi mumkin, lekin ularning ma'nosi har bir xalqda boshqacha ma'nolarni anglatadi. Masalan, egilish o'zbek xalqida kichiklarning kattalarga salom berishida ishlatilinsa, yaponlarda xurmat ko'rsatishni, koreslarda rahmat aytish ma'nosini anglatadi. Qolaversa, ayrim imo-ishoralarning kelib chiqishi ham turlichadir. Bunga misol qilib, hozirgi kunda "zo'r, ajoyib" ma'nosini bildiruvchi bosh barmoqni tepaga ko'rsatish va mag'lubiyat ma'nosini bildiruvchi bosh barmoqni yerga qaratish belgisidir. Qadimgi Rimda gladiatorlar janggi bo'ladigan paytlarda agarda gladiatorga yashashlik nasib qiladigan bo'lsa, tomoshabinlar bosh barmoqini tepaga qaratishgan; aksincha bo'lsa, bosh barmoqlar yerga qaratilgan va gladiator o'ldirilgan. Bundan tashqari, barmoqlarni "V" qilib ko'rsatish belgisi II jahon urushi tugagan paytda fashistlar ustidan g'alaba qozonilganligi sabab paydo bo'lgan bo'lsa, hozir esa o'yin-kulgi,



ko'ngilxushlik ma'nolarini bildiradi. Xolbuki, bu ishora inglizcha "victor" – ya'ni "g'alaba" so'zidan kelib chiqqan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insonlar o'rtasida muloqot jarayoni ikki xil til sathlari negizida yuzaga chiqadi: lisoniy va nolisoniy vositalar. Lisoniy vosita – ya'ni til hamma uchun bir xil bo'lgan, sivilizatsiya bilan birgalikda paydo bo'lib hozirgi kungacha sayqallanib ixcham va sodda ko'rinishga kelgan bo'lsa, nolisoniy vositalar tildan ancha farq qilgan holda imo-ishoralarni, mimika va tana harakatlarini o'z ichiga oladi va u ham ma'lum bir xalqning, elatning urf-odatlarini bilan birgalikda asrlar osha rivoj topib kelmoqda. Bu ikkala aloqa-aralashuv vositalarini bir-biridan ajratib bo'lmaydi: til orqali fikrimizni ifoda qilsak, imo-ishoralar orqali uni tinglovchiga yanada jozibarli va tushunarli yetkaza olamiz. Shuning uchun ham, ular har doim bir-birini to'ldirib keladi deb hisoblanadi. Noverbal aloqa-aralashuv vositalari bir qancha fanlarning o'rganish obyektiga aylangan bo'lsada, u hali tilshunoslik fani tomonidan to'liq o'rganib chiqilmagan va hozir ham uning ustida tadqiqotchilar shug'ullanishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Saidxonov – "Aloqa-aralashuv va imo-shoralar", Toshkent, 2008.
2. M.T.Irisqulov – "Tilshunoslikka kirish", Toshkent.
3. "O'zME". Birinchi jild, Toshkent, 2000.
4. A.A.Abduazizov – "Tilshunoslikka kirish", Toshkent, 1999.
5. www.ziynet.uz